



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 374 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
<i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	
O'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat usullari	114
<i>Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich</i>	
Dizartriya shakllarining klinik-patogenetik tahlili va differensial diagnostikasi	120
<i>Axmedova V. T.</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ topshiriqlar ishlab chiqishning uslubiy asoslari.....	127
<i>Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna</i>	
Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari.....	132
<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar o'quv natijalarini baholashning pedagogik modeli.....	138
<i>Ernazarov Mirzohid Yo'ldosh o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	145
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv tilshunoslikni joriy etish masalalar	150
<i>Mamatova Gulshan Amankulovna</i>	
Doston musiqiy merosini o'rganishni uslubiy takomillashtirish mazmuni.....	153
<i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Nasirova Sevinch Ismatovna</i>	
"Elektr yoritish" fanida mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari.....	157
<i>Nasretdinova Feruza Nabiyeвна</i>	
Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish	162
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	167
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
A Methodological Model for Developing Pedagogical Reflection in Pre-Service EFL Teachers.....	172
<i>Rahimberdiyeva Maftuna Rakhimberdi kizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzining kasbiy kompetentlikka ta'siri	177
<i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar va faol ta'lim metodlarining samaradorligi	182
<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, turlari va funksional ahamiyati.....	190
<i>Safarova Soliha Ilhomovna</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 196	
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Musiqqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	200
<i>Saparov Raxim Muratbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida.....	204
<i>Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Energetika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklari.....	208
<i>Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich</i>	
Методическая модель контекстуального обучения в формировании лингвокультурной компетенции при обучении русскому языку в национальных группах	213
<i>Рустамова Ферузaxon Махмуджановна</i>	

Integrating Artificial Intelligence into EFL Academic Writing Instruction: Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications.....	218
<i>Allamurodov Elyor Tursun ugli</i>	
Sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini.....	223
<i>Dilrabo Jumanova</i>	
Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ekotizimi: imkoniyatlar va xavflar	227
<i>Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li</i>	
Z avlod bilan ishlashda ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy tendensiyalar	232
<i>Ravshanov Sanjar Tolibjonovich</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati...	235
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Tarixiy-ilmiy materiallar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik tafakkurini rivojlantirish metodikasi.....	239
<i>Toshpulatova Mamura Ismailovna, Mannonova Dilafro'z Ravshan qizi</i>	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va muvofiqlashtirish ...	244
<i>Xakimov Abdug'ulom Soyibjonovich</i>	
Ingliz tilini boshqa sohadagilarga o'qitishda grammatik jihatlar	247
<i>Ataboyeva Guliruxsor Baxtiyor qizi</i>	
Methodological Foundations for Developing Environmental Education Through the Integration of Climate Change Education Into Biology Lessons in General Secondary Schools.....	250
<i>Abdurakhmanova Iqbolkhon Yulchiyevna</i>	
Sharq va G'arb mutafakkir olimlarining oila va farzand tarbiyasi borasidagi qarashlari	255
<i>Berdiyeva Dilnoza A'zamovna</i>	
Ommaviy sport turlari yordamida ayollarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirishda ilmiy yondashuv	258
<i>Charos Axmadova</i>	
STEAM integratsiyasi orqali maktab o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	262
<i>Choriyor Maxmatraimov Eshmamatovich</i>	
Maktabgacha ta'lim kafedrasida bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion-metodik faoliyatga tayyorlashni transformatsion boshqarish texnologiyasi	267
<i>Djalalov Baxromjan Begmurzayevich</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida yosh ota-onalarda yolg'izlik hissining namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik omillar	272
<i>Erimmetova Nafisa Bahromovna</i>	
Zamonaviy ta'lim muhitida talabalarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi va uning strategiyalari	279
<i>Haqberdiyeva Dinora Qobil qizi</i>	
Maktab direktorlarining moliyaviy boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	283
<i>Karimov Jaxongir Abdunabiyevich</i>	
Jadidlar merosiga e'tibor: tarixiy xotira va ma'naviy tiklanish omili.....	287
<i>Madaminova Shaxodat Shomurotovna</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi o'rni va nutqni baholashdagi imkoniyatlari.....	293
<i>Mahmudova Maftuna Aktam qizi</i>	
Effectiveness of Simulator Technologies in Pilot Training: an Experimental Study	297
<i>Maksudov Ilhomjon Turgunboy o'g'li</i>	
Yangi O'zbekistonda o'qituvchi maqomining huquqiy kafolatlari va pedagogik faoliyat samaradorligi.....	301
<i>Menlibayeva Azima Oralbayevna, Oralbayeva Aziza</i>	
Raqamli jamiyat sharoitida ong transformatsiyasining falsafiy jihatlari.....	305
<i>Muxitdin Nazarov</i>	
10-11-sinf o'quvchilarida o'qishdan yozuvga o'tish ko'nikmasini rivojlantirishning bosqichli metodik tizimi ...	310
<i>Nazarova Shoiraxon Abdumo'min qizi</i>	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida "potensial" tushunchasi: shaxsning rivojlanishga qaratilgan ichki imkoniyatlari, bilim, ko'nikma, qobiliyat va kompetensiya.....	314
<i>Qurbonova Gulmira Alisher qizi</i>	



Deffenbacherning driving anger scale metodi asosida haydovchilarning agressiv xulq-atvorining psixologik xususiyatlarini jinslar kesimida o'rganish	318
Rahim Usmonov Raxmonali o'g'li	
Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	323
Sadoqat Sarmanova Shermahmatovna	
Vizual axborot: paydo bo'lish tarixi, qo'llanish sohalari va ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	328
To'g'izboyev Faxriddin Ulashovich	
Fizika darslarini tashkil etishning mazmuni, mohiyati va didaktik tamoyillari.....	334
Turabova Lobar Xusen qizi	
Ekstrakorporal urug'lantirish orqali tug'ilgan bolalarda xotiraning rivojlanishi	339
Usmonova Xusnora Ergashovna	
Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional barqarorligini shakllantirish	344
Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna	
Milliy va xalq o'yinlari vositasida talabalarni sog'lomlashtirish.....	347
Ahmedov Gayratjon Kosimovich	
Деонтология медицинского персонала: этико-профессиональные ориентиры в условиях современной медицины.....	350
Бабаджанова Гулчехра	
Формирование творческого восприятия учащихся на уроках музыки.....	355
Габдульманова Ильнура Минисламовна	
Qizlar tarbiyasida maktab va mahalla hamkorligi monitoring tizimini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	358
Abdurazoqova Marg'uba Muxammad qizi	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish pedagogik muammo sifatida	362
Ergashova Dilafro'z	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy karyerani shakllantirishning metodologik asoslari	365
Hayitova Sarvinoz Mahmudovna, Ilmiy rahbar: Ashirova Sojida Baxromovna	
Pedagogical and Methodological Foundations for Developing an Interactive Mobile Application for Teaching English to Preschool Children (Based on the Solobee Project)	368
Khurshida Kuchkarova	



MAKTABGACHA TA'LIM KAFEDRASIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARNI INNOVATSION-METODIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNI TRANSFORMATSION BOSHQARISH TEXNOLOGIYASI

Djalalov Baxromjan Begmurzayevich

Farg'ona davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrasasi mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ORCID: 0000-0002-7895-917X

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim kafedrasida bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion-metodik faoliyatga tayyorlashni transformatsion boshqarish texnologiyasi ilmiy-metodik jihatdan asoslangan. Tadqiqotda kafedra faoliyati faqat o'quv yuklamasi, fan dasturi va hisobotlar bilan bog'liq ma'muriy jarayon emas, balki bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish qobiliyati, raqamli-didaktik resurslar bilan ishlash kompetensiyasi, refleksiv baholash hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikni ta'minlovchi pedagogik boshqaruv maydoni sifatida talqin qilingan. Maqolada maktabgacha ta'lim yo'nalishi kafedrasida bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashning "metodik inkubator" texnologiyasi taklif etilib, uning diagnostik, motivatsion, loyihalash, simulyativ-amaliy, hamkorlik, refleksiv-portfolio va natijaviy-monitoring bosqichlari asoslab berilgan. Ushbu texnologiya kafedra faoliyatini maktabgacha ta'lim amaliyoti, innovatsion pedagogik texnologiyalar, elektron resurslar, metodik mentorlik va kompetensiyaviy baholash bilan integratsiyalashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, kafedra, bo'lajak tarbiyachi, innovatsion-metodik faoliyat, transformatsion boshqaruv, metodik inkubator, raqamli-didaktik resurs, kompetensiyaviy yondashuv, refleksiv portfolio, mentorlik.

Abstract: The article scientifically and methodologically substantiates the technology of transformational management of preparing future preschool educators for innovative methodological activity at the Department of Preschool Education. Department activity is interpreted not merely as an administrative process related to teaching load, curricula, and reporting, but as a pedagogical management environment that ensures future educators' professional and methodological training, the ability to use innovative pedagogical technologies, digital didactic resources, reflective assessment, and cooperation with preschool educational organizations. The article proposes a "methodological incubator" technology for preparing future preschool educators, including diagnostic, motivational, design, simulation-practical, partnership, reflective-portfolio, and result-monitoring stages.

Key words: preschool education, department, future educator, innovative methodological activity, transformational management, methodological incubator, digital didactic resource, competency-based approach, reflective portfolio.

Аннотация: В статье научно-методически обоснована технология трансформационного управления подготовкой будущих воспитателей к инновационно-методической деятельности на кафедре дошкольного образования. Деятельность кафедры рассматривается не только как административный процесс, связанный с учебной нагрузкой, рабочими программами и отчетностью, но и как педагогическое управленческое пространство, обеспечивающее профессионально-методическую подготовку будущих воспитателей, развитие способности использовать инновационные педагогические технологии, цифровые дидактические ресурсы, рефлексивную оценку и сотрудничество с дошкольными образовательными организациями. В статье предложена технология "методического инкубатора" подготовки будущих воспитателей, включающая диагностический, мотивационный, проектировочный, симулятивно-практический, партнерский, рефлексивно-портфолио и результативно-мониторинговый этапы.

Ключевые слова: дошкольное образование, кафедра, будущий воспитатель, инновационно-методическая деятельность, трансформационное управление, методический инкубатор, цифровой дидактический ресурс, компетентностный подход, рефлексивное портфолио.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimi shaxsning dastlabki ijtimoiy, intellektual, axloqiy, kommunikativ va emotsional rivojlanishini ta'minlovchi muhim pedagogik bosqich hisoblanadi. Shu sababli mazkur tizim uchun tayyorlanayotgan bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki bolalar rivojlanish xususiyatlarini anglash, ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash, o'yinli va integrativ metodlardan foydalanish, ota-onalar bilan muloqot qilish, raqamli-didaktik resurslarni qo'llash hamda o'z faoliyatini tahlil qilish qobiliyatlari bilan belgilanadi. Bugungi transformatsiya sharoitida maktabgacha ta'lim yo'nalishi kafedrasining vazifasi ham mazmunan yangilanmoqda. Endilikda kafedra faqat fanlarni o'qituvchi professor-o'qituvchilarni birlashtiruvchi akademik bo'linma emas, balki bo'lajak tarbiyachining kasbiy qiyofasini shakllantiruvchi, metodik tajriba maydonini yaratadigan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantiradigan, innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga kiritadigan va talabning amaliy tayyorgarligini monitoring qiladigan muhim metodik markaz sifatida namoyon bo'lmoqda.

Maktabgacha va maktab ta'limini sifat jihatdan takomillashtirishga qo'yilayotgan zamonaviy talablar sirasida talabalarni innovatsion faollikka yo'naltirish, o'zini o'zi nazorat qilish, shaxslararo muloqotga tayyorlash, ijodiy faoliyatini rivojlantirish, subyekt-subyekt munosabatlariga kirishish, kompetensiyaviy diagnostikani yo'lga qo'yish va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish kabi yo'nalishlar alohida ahamiyat kasb etadi [3, B. 91-92]. Bu esa maktabgacha ta'lim yo'nalishi kafedrasida bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonini transformatsion boshqaruv asosida qayta tashkil etishni talab qiladi. Amaliyotda ayrim hollarda bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda fan mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, malakaviy amaliyot, elektron resurslar, metodik topshiriqlar va refleksiv baholash o'zaro yetarlicha bog'lanmaydi.

Natijada talaba nazariy bilimlarni egallagan bo'lsa-da, ularni maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitida qo'llash, bolalar faoliyatini loyihalash, didaktik o'yinlar yaratish, kuzatuv olib borish, ota-onalar bilan pedagogik muloqot qilish yoki mashg'ulot natijalarini tahlil qilishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Shu bois kafedra faoliyatida bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion-metodik faoliyatga tayyorlashga xizmat qiluvchi maxsus boshqaruv texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi maktabgacha ta'lim yo'nalishi kafedrasida bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion-metodik faoliyatga tayyorlashni transformatsion boshqarish texnologiyasini ishlab chiqish, uning bosqichlari, pedagogik shart-sharoitlari, baholash mezonlari va kutilayotgan natijalarini ilmiy-metodik jihatdan asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotda nazariy tahlil, pedagogik modellashtirish, kompetensiyaviy tahlil, metodik loyihalash, qiyosiy tahlil, refleksiv umumlashtirish va diagnostik yondashuv metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil orqali maktabgacha ta'lim sifati, kafedra faoliyati, bo'lajak tarbiyachilarni metodik tayyorlash, innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli-didaktik resurslar va kompetensiyaviy yondashuvga oid manbalar o'rganildi.

Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, integrativ, faoliyatli, refleksiv, amaliyotga yo'naltirilgan va raqamli-didaktik yondashuvlar tashkil etdi. Kompetensiyaviy yondashuv bo'lajak tarbiyachining metodik tayyorgarligini bilim, ko'nikma, munosabat, amaliy harakat va refleksiv baholash birligi sifatida talqin etishga imkon beradi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik qobiliyatlar majmuasini takomillashtirishga oid tadqiqotlarda ham oliy ta'lim o'qituvchisi faoliyatining kasbiy-pedagogik salohiyat, metodik fikrlash va ta'lim jarayonini tashkil etish mahorati bilan bog'liqligi asoslangan [7, B. 5-9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Integrativ yondashuv kafedra faoliyatida nazariya, amaliyot, metodika, raqamli resurslar, ilmiy izlanishlar va maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikni o'zaro bog'lash imkonini beradi. Faoliyatli yondashuv talabning faqat bilim oluvchi emas, balki mashg'ulot loyihalovchi, o'yin texnologiyasi yaratuvchi, kuzatuvchi, tahlil qiluvchi va refleksiya qiluvchi subyekt sifatida rivojlanishini ta'minlaydi. Refleksiv yondashuv talabning o'z metodik harakatlarini baholashi, yutuq va kamchiliklarini aniqlashi hamda individual kasbiy o'sish rejasini tuzishiga xizmat qiladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar bo'yicha manbalarda interfaol metodlar, treninglar, didaktik texnologiyalar va amaliy topshiriqlar ta'lim jarayonini faollashtirish vositasi sifatida talqin qilinadi [8, B. 3-4]. Interaktiv elektron ta'lim trenajyorlariga oid tadqiqotlarda esa elektron o'quv vositalaridan foydalanish o'quvchi yoki talabning mustaqil mashq qilishi, xatolarini aniqlashi, bilimlarini mustahkamlashi va natijalarni tezkor baholash imkonini berishi ko'rsatiladi [9, B. 3-8].

Mazkur yondashuvlar maktabgacha ta'lim yo'nalishi kafedrasida bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion-metodik faoliyatga tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqishda asos qilib olindi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijasida maktabgacha ta'lim yo'nalishi kafedrasida bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion-metodik faoliyatga tayyorlashni transformatsion boshqarishning "metodik inkubator" texnologiyasi ishlab chiqildi. Ushbu texnologiya kafedra faoliyatida talabning nazariy bilimdan amaliy metodik harakatga, amaliy harakatdan refleksiv tahlilga, refleksiv tahlildan esa individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga o'tishini ta'minlaydigan bosqichli jarayon sifatida qaraladi. "Metodik inkubator" tushunchasi mazkur maqolada bo'lajak tarbiyachining innovatsion-metodik faoliyatini kafedra sharoitida bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik boshqaruv muhiti sifatida talqin qilinadi. Unda talaba tayyor bilimni qabul qiluvchi passiv ishtirokchi emas, balki mashg'ulot loyihalovchi, didaktik o'yin yaratuvchi, bolalar faoliyatini kuzatuvchi, tarbiyaviy vaziyatni tahlil qiluvchi, elektron resurslardan foydalanadigan va o'z metodik tajribasini refleksiya qiluvchi faol subyekt sifatida rivojlanadi.

1-jadval: "Metodik inkubator" texnologiyasining bosqichlari

№	Bosqich	Mazmuni	Amaliy vositalar	Kutiladigan natija
1	Diagnostik bosqich	Talabalarning boshlang'ich metodik tayyorgarligi, raqamli savodxonligi va bolalar bilan ishlashga psixologik tayyorgarligi aniqlanadi	so'rovnoma, suhbat, test, kuzatuv, boshlang'ich topshiriq	Talabning metodik ehtiyoji aniqlanadi
2	Motivatsion bosqich	Bo'lajak tarbiyachida kasbiy qiziqish, bolalar bilan ishlashga mas'uliyat va metodik izlanishga ehtiyoj shakllantiriladi	kasbiy vaziyat, motivatsion suhbat, real tajriba tahlili	Kasbiy-metodik motivatsiya kuchayadi
3	Loyihalash bosqichi	Talaba mashg'ulot, didaktik o'yin, kuzatuv varaqasi va tarbiyaviy vaziyat loyihasini ishlab chiqadi	metodik konstruktor, mashg'ulot xaritasi, o'yin ssenariysi	Metodik loyihalash ko'nikmasi rivojlanadi
4	Simulyativ-amaliy bosqich	Talaba yaratilgan metodik ishlanmani auditoriyada, mikrota'lim yoki simulyatsiya sharoitida sinab ko'radi	rolli o'yin, mikrota'lim, trening, elektron trenajyor	Amaliy metodik harakat shakllanadi
5	Hamkorlik bosqichi	MTT, amaliyot bazasi, mentor tarbiyachi va kafedra o'qituvchisi hamkorligida topshiriqlar bajariladi	amaliyot kundaligi, mentor bahosi, kuzatuv protokoli	Ta'lim va amaliyot integratsiyasi kuchayadi
6	Refleksiv-portfolio bosqichi	Talaba o'z ishlanmalari, kuzatuvlari, xatolari, yutuqlari va kasbiy o'sishini portfolio orqali tahlil qiladi	elektron portfolio, refleksiv hisobot, peer-review	O'z-o'zini baholash va kasbiy o'sish shakllanadi
7	Natijaviy-monitoring bosqichi	Talabning innovatsion-metodik tayyorgarligi mezonlar asosida baholanadi	rubrika, ekspert baholash, yakuniy loyiha, himoya	Innovatsion-metodik kompetentlik darajasi aniqlanadi

Ushbu texnologiya bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda kafedra faoliyatini amaliyotga yaqinlashtiradi. Diagnostik bosqichda talabning real tayyorgarlik darajasi aniqlanadi. Bu bosqichda talaba maktabgacha yoshdagi bolalar bilan muloqot qilish, mashg'ulot maqsadini belgilash, didaktik material tanlash, raqamli vositalardan foydalanish va bolalar faoliyatini kuzatish bo'yicha boshlang'ich topshiriqlarni bajaradi. Motivatsion bosqichda talaba tarbiyachi kasbining ijtimoiy ahamiyatini anglaydi. Bu jarayonda real pedagogik vaziyatlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan (MTT) olingan amaliy misollar, bolalar bilan ishlashdagi muammoli holatlar va kasbiy qadriyatlar muhokama qilinadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishga oid tadqiqotlarda ham maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlashda boshqaruv, kommunikativlik, mas'uliyat va kasbiy rivojlanish omillari muhimligi ko'rsatilgan [6, B. 3-8]. Bu g'oya bo'lajak tarbiyachilar tayyorgarligida ham kasbiy mas'uliyatni shakllantirish zarurligini asoslaydi. Loyihalash bosqichida talaba nazariy bilimlarni metodik mahsulotga aylantiradi. Masalan, u "Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish", "Matematik tasavvurlarni shakllantirish", "Tabiat bilan tanishtirish", "Badiiy-estetik tarbiya" kabi yo'nalishlarda mashg'ulot xaritasi, didaktik o'yin, interfaol topshiriq yoki kuzatuv varaqasini ishlab chiqadi. Ushbu bosqichning asosiy maqsadi talabning metodik fikrlashini shakllantirishdan iborat.

Simulyativ-amaliy bosqichda talaba o'z loyihasini real bolalar guruhi oldidan avval mikrota'lim, rolli o'yin yoki simulyatsiya sharoitida sinab ko'radi. Bu bosqich xatolarni xavfsiz pedagogik muhitda aniqlash va tuzatish imkonini beradi. Interaktiv elektron ta'lim trenajyorlari va raqamli mashq vositalaridan foydalanish talabning mustaqil mashq qilishi, xatolarini ko'rish va faoliyatini qayta loyihalash imkoniyatini kengaytiradi [9, B. 3-8].

Hamkorlik bosqichida kafedra, MTT va mentor-tarbiyachi o'rtasida uch tomonlama metodik aloqadorlik yo'lga qo'yiladi. Kafedra o'qituvchisi nazariy-metodik yo'nalish beradi, MTT amaliy muhitni yaratadi, mentor-tarbiyachi esa talabani real faoliyatini kuzatadi va tavsiyalar beradi. Oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga oid tadqiqotlarda ta'lim muassasalari va amaliyot subyektlari o'rtasidagi hamkorlik innovatsion rivojlanishning muhim sharti sifatida asoslangan [10, B. 3-9].

Maktabgacha ta'lim yo'nalishida bu hamkorlik "kafedra – MTT – talaba – mentor" tizimi orqali namoyon bo'ladi. Refleksiv-portfolio bosqichida talaba o'zining metodik mahsulotlari, amaliy kuzatuvlari, mashg'ulot loyihalari, xatolari, tuzatishlari va yutuqlarini elektron portfolio shaklida jamlaydi. Portfolio talabani oddiy hujjatlar to'plami emas, balki uning kasbiy o'sish dinamikasini ko'rsatuvchi metodik dalillar bazasidir. Refleksiv portfolio orqali talaba "Nimani bilaman?", "Nimani bajara oldim?", "Qaysi vaziyatda qiynaldim?", "Keyingi safar qanday yondashaman?" kabi savollarga javob izlaydi.

Natijaviy-monitoring bosqichida talabani innovatsion-metodik tayyorgarligi mezonlar asosida baholani. Baholashda faqat yakuniy nazorat emas, balki metodik loyiha, simulyatsiya natijasi, mentor bahosi, elektron portfolio, refleksiv hisobot va amaliy mashg'ulot himoyasi ham hisobga olinadi. Ta'lim sifati monitoringini takomillashtirishga oid tadqiqotlarda sifati baholashda natijaviylik, pedagogik jarayon, o'qituvchi salohiyati va ta'lim muhitini kompleks tahlil qilish zarurligi qayd etiladi [5, B. 3-8].

Taklif etilayotgan "metodik inkubator" texnologiyasi maktabgacha ta'lim yo'nalishi kafedrasida faoliyatini yangi mazmunda tashkil etishga xizmat qiladi. Uning asosiy farqi shundaki, bunda kafedra talabalarga faqat fanlar bo'yicha bilim beruvchi tuzilma emas, balki ularning kasbiy-metodik faoliyatini shakllantiruvchi, amaliy faoliyatga tayyorlovchi, metodik mahsulot yaratishga yo'naltiruvchi va refleksiv o'sishini kuzatuvchi boshqaruv-metodik markaz sifatida faoliyat yuritadi. Mazkur texnologiya bir necha pedagogik afzalliklarga ega.

Birinchidan, u bo'lajak tarbiyachining nazariy bilimlarini amaliy metodik harakatga aylantiradi.

Ikkinchidan, talabani kasbiy tayyorgarligi faqat auditoriyada emas, balki MTT, mentor-tarbiyachi va amaliy topshiriqlar bilan bog'langan holda shakllanadi.

Uchinchidan, elektron portfolio va raqamli resurslar talabani o'zini o'zi baholash imkoniyatlarini kengaytiradi.

To'rtinchidan, kafedra o'qituvchisi talabani rivojlanishini faqat semestr oxirida emas, balki butun o'quv jarayoni davomida kuzatadi.

Beshinchidan, talaba mashg'ulot loyihalash, o'yin texnologiyasini yaratish, vaziyatni tahlil qilish va natijani baholash ko'nikmalarini bosqichma-bosqich egallaydi.

Texnologiyaning samarali ishlashi uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar zarur:

Birinchidan, maktabgacha ta'lim yo'nalishi kafedrasida metodik mentorlik tizimini yo'lga qo'yish.

Ikkinchidan, har bir fan doirasida amaliy-metodik mahsulot yaratishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish.

Uchinchidan, MTTlar bilan doimiy amaliy hamkorlikni tashkil etish. To'rtinchidan, elektron portfolio va raqamli resurslar bankini shakllantirish.

Beshinchidan, talabalarining metodik loyihalarini baholash uchun aniq rubrikalarni ishlab chiqish.

Oltinchidan, professor-o'qituvchilar o'rtasida ochiq darslar, metodik seminarlar, peer review va tajriba almashish muhitini yaratish.

Yettinchidan, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy refleksiyasini muntazam rivojlantirish.

Kafedra faoliyatida mazkur texnologiyani qo'llash bo'lajak tarbiyachilarni maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitiga yaqinlashtiradi. Chunki talaba o'qish jarayonining o'zidayoq mashg'ulot loyihalash, bolalar faoliyatini tahlil qilish, o'yin texnologiyalarini yaratish, ota-onalar bilan muloqotga tayyorlanish, didaktik materiallar ishlab chiqish va o'z faoliyatini baholashga o'rganadi. Bu esa nazariy bilim va amaliy faoliyat o'rtasidagi uzilishni kamaytiradi.

2-jadval: **Bo'lajak tarbiyachilarning innovatsion-metodik tayyorgarligini baholash mezonlari**

№	Mezon	Indikatorlar
1	Motivatsion-kasbiy mezon	tarbiyachi kasbiga qiziqish; bolalar bilan ishlashga mas'uliyat; metodik izlanishga ehtiyoj
2	Kognitiv-metodik mezon	maktabgacha ta'lim metodikalarini bilish; yosh xususiyatlarini anglash; pedagogik texnologiyalarni tushunish
3	Loyihalash mezoni	mashg'ulot xaritasi tuzish; didaktik o'yin yaratish; kuzatuv varaqasi ishlab chiqish; tarbiyaviy vaziyatni modellashtirish



№	Mezon	Indikatorlar
4	Amaliy-faoliyat mezon	mikrota'limda ishtirok etish; simulyatsion mashg'ulot o'tkazish; MTT sharoitida topshiriq bajarish
5	Raqamli-didaktik mezon	elektron resursdan foydalanish; interaktiv topshiriq yaratish; elektron portfolio yuritish
6	Kommunikativ-hamkorlik mezon	bolalar, ota-onalar, mentor tarbiyachi va kafedra o'qituvchisi bilan samarali muloqot qilish
7	Refleksiv mezon	o'z faoliyatini baholash; xatolarni aniqlash; takomillashtirish rejasini ishlab chiqish
8	Natijaviy mezon	innovatsion-metodik loyiha sifati; amaliy himoya natijasi; mentor va ekspert bahosi

Ushbu mezonlar bo'lajak tarbiyachining tayyorgarligini faqat bilim darajasi bilan emas, balki metodik loyihalash, amaliy faoliyat, raqamli vositalardan foydalanish, kommunikativ hamkorlik va refleksiv o'sish ko'rsatkichlari asosida ham baholash imkonini beradi. Shu jihatdan mazkur baholash tizimi kompetensiyaviy yondashuv talablariga to'liq mos keladi.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi kafedrasida bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion-metodik faoliyatga tayyorlashni transformatsion boshqarish zamonaviy pedagogik ta'limning muhim ilmiy-metodik masalalaridan biridir. Chunki bo'lajak tarbiyachi faqat nazariy bilim egasi emas, balki bolalar rivojlanishini tushunadigan, mashg'ulotlarni loyihalay oladigan, didaktik o'yinlar yarata oladigan, raqamli-didaktik resurslardan foydalana oladigan, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqotga kirisha oladigan hamda o'z faoliyatini tahlil qila oladigan mutaxassis sifatida tayyorlanishi zarur. Maqolada taklif etilgan "metodik inkubator" texnologiyasi maktabgacha ta'lim yo'nalishi kafedrasida bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion-metodik faoliyatga tayyorlashning diagnostik, motivatsion, loyihalash, simulyativ-amaliy, hamkorlik, refleksiv-portfolio va natijaviy-monitoring bosqichlarini o'z ichiga oladi. Ushbu texnologiya talabning nazariy bilimlarini real metodik mahsulotga, metodik mahsulotni amaliy harakatga, amaliy harakatni esa refleksiv kasbiy o'sishga aylantirish imkonini beradi.

Texnologiyaning amaliy ahamiyati shundaki, u kafedra, maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT), mentor-tarbiyachi va talaba hamkorligini kuchaytiradi, o'quv jarayonini amaliyot bilan bog'laydi, elektron portfolio, raqamli resurslar, metodik loyihalar va kompetensiyaviy baholashni yagona tizimga birlashtiradi. Natijada bo'lajak tarbiyachilarning innovatsion-metodik kompetentligi, kasbiy mas'uliyati, raqamli-didaktik tayyorgarligi va refleksiv fikrlashi rivojlanadi. Umuman olganda, "metodik inkubator" texnologiyasi maktabgacha ta'lim yo'nalishi kafedrasida faoliyatini transformatsiya sharoitida yangilash, bo'lajak tarbiyachilarni amaliy-metodik faoliyatga samarali tayyorlash va maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik mexanizm sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-4545884>
2. Xo'jaev A. A. Pedagogik ta'limni prognozlash tashkiliy-texnologik asoslarini takomillashtirish: pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2023. – B. 91-92.
3. Abdullayeva O. S. Oliy ta'lim muassasalari kafedrasida faoliyatining axborot-intellektual tizimini yaratish va foydalanish texnologiyasini takomillashtirish: pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024. – B. 9-17; 25-26.
4. Xo'jaev A. A. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati monitoringini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – B. 3-8.
5. Hamdamova M. T. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – B. 3-8.
6. Musayev O. Q. Kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik qobiliyatlar kompleksini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2019. – B. 5-9.
7. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: "Nihol", 2013. – B. 3-4.
8. Aliboev S. X. Interaktiv elektron ta'lim trenajyorlarini yaratish va undan foydalanish metodikasini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – B. 3-8.
9. Usmonov B. Sh. Oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini klasterli yondashuvlar asosida innovatsion rivojlantirish: pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – B. 3-9.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.